

## SOG'LOM OVQATLANISH ASOSLARI

**Ismoilov Dilmurod Tavakkal o‘g‘li**  
**Qambarov Barkamol Baxtiyorjon o‘g‘li**  
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola aholi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish asoslari va aholi o‘rtasida ovqatlanishning buzilishi, alimentar kasalliklar haqida qisqacha so‘z yuritiladi. Aholimiz qachinki sog‘lom ovqatlanishni yo‘lga qo‘yar ekan o‘shandagina aholi o‘rtasida ko‘p kasalliklar bartaraf etiladi va yo‘qolib ketishi ham mumkin. Hozirgi kundagi ko‘p kasalliklar manashu nato‘g‘ri ovqatlanish ortidan kelib chiqmoqda.

**Kalit so‘zlari:** Sog‘lom ovqatlanish, alimentar kasalliklar, vitaminlar, yog‘lar, oqsillar, uglevodlar, energiya protein.

### KIRISH

Ovqatlanish salomatlik holatini belgilovchi muhim omillardan biri bo‘lib, u har bir shaxsning va umuman olganda butun aholining salomatligiga ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday tirik organizmda doimiy tarzda assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlari kuzatiladi va agar organizmda oziq moddalarning ovqat orqali iste’mol qilinmasa hamda oksidlanish-qaytarilish jarayonlari kuzatilmasa assimilyatsiya jarayoni izdan chiqadi. Natijada organizmni energiya bilan ta’minalash va organizmda ro‘y beradigan barcha hayotiy jarayonlarni ta’minlovchi asosiy oziq moddalar - oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, vitaminlar va mineral tuzlarga bo‘lgan tanqislik yuzaga keladi. Shuning uchun inson organizmi muntazam tarzda sifatli ovqatlanib turishi zarur. Insonning yashash umri davomida (o‘rtacha 70 yillik umr mobaynida) odam o‘rta hisobda 2,5 tonna oqsil, 3 tonna yog‘ mahsulotlari, 10 tonna uglevod va 250 kg osh tuzini iste’mol qiladi. Odam organizmiga oziq moddalarning tushib turishi uning hayotiy faoliyatini ta’minlabgina qolmay, balki sezilarli darajada odamning salomatligini ham belgilab beradi. Ma’lumki, aholining salomatlik ko‘rsatkichlari ularning ovqatlanish tarzi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ovqatlanish sifatiga ayniqsa bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari, mehnatga layoqatli aholining mehnat qobiliyati, tashqi muhitning salbiy ta’siriga qarshi kurashish qobiliyati, aholining umumiylashtirish darajasi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi bevosita bog‘liqdir. Noto‘g‘ri ovqatlanish natijasida ko‘pgina kasalliklarning kechishi og‘irroq shaklda o‘tadi, ularning surunkali shaklga o‘tishi tezlashadi, sog‘ayish muddati uzayib ketadi. Ovqatlanishning fiziologik me’yorlari. Ovqatlanishning fiziologik me’yorlari

nutritsiologiya mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, aholining turli guruhlari uchun mo‘jallangan. Bu fiziologik me’yorlar tavsiya maqsadida taklif etiladi. Organizmning oziq moddalariga va energiyaga bo‘lgan fiziologik ehtiyoji doimiy ya’ni o‘zgarmas miqdor emas, balki muntazam o‘zgartirish kiritilishga muhtojdir, chunki ilmiy yangiliklar va aholining turmush tarzini o‘zgarishi bu ko‘rsatkichlarni o‘zgartirib turishni taqozo etadi. Ovqatlanishning fiziologik me’yorlari - bu oziq moddalari va energiya miqdorlari bo‘lib, organizmning yoshi, jinsi, mehnat faoliyatining turiga muvofiq organizmning fiziologik ehtiyojini qondirish uchun belgilangan me’yorlardir. Ovqatlanishning fiziologik me’yorlari quyidagi aholi guruhlari uchun ishlab chiqilgan: I. 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar. Ular 9 ta yosh guruhiga bo‘lingan bo‘lib, 11 yoshdan so‘ng ularning jinsi ham inobatga olinadi. Kundalik ovqat ratsionining energetik quvvati ularning yosh ko‘rsatkichlariga muvofiq 1540 kkaldan (1-3 yoshli) 3000 kkalgacha (14-17 yoshli o‘smirlar) dir. II. Mehnatga qobiliyatli bo‘lgan 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan aholi. Ular bajaradigan mehnatning jadalliligi bo‘yicha jinsnii hisobga olgan holda 5 ta kasbiy guruhga bo‘linadilar. Har bir mehnat guruhning o‘zi aholini yosh ko‘rsatkichlari bo‘yicha yana 3 ta guruhga -18-29 yosh, 30-39 yosh va 40-60 yoshdagi aholi guruhiga bo‘linadilar. 1-guruh: aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar (korxona va muassasa rahbarlari, pedagoglar, ilmiy xodimlar, ayrim turdag‘i tibbiy xodimlar). 2-guruh: yengil jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar (injenertexnik xodimlar, avtomatlashtirilgan korxona ishchilar, tikuvchilar, aloqa xodimlari, hamshiralalar, sanitarni xodimlar va b.). 3-guruh: o‘rtacha og‘irlikdagi jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar (stanoklarda ishlovchilar, chilangarlar, kimyoviy korxona ishchilar, to‘qimachilik korxonalarini ishchilar, haydovchilar, jarrohlar, oziq-ovqat do‘konlari sotuvchilar) 4 guruh: og‘ir jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar (quruvchilar, qishloq xo‘jaligidagi ishchi va xizmatchilar, mexanizatorlar, neft va gaz sanoati korxonalarini ishchilar, metallurglar) 5 guruh: faqat erkaklar uchun bo‘lib, o‘ta og‘ir jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchilarini o‘z ichiga oladi (yer osti konlarida ishlovchilar, g‘isht teruvchilar, yuk tashuvchilar, beton quyuvchilar, yer qazuvchilar va h.k.). Ovqatlanishning fiziologik me’yorlarini bajarmaslik, hamda boshqa gigiyenik talablarga rioya qilmaslik aholi o‘rtasida juda keng tarqalgan va ovqatlanish sifatiga bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘lgan alimyentlar kasalliklarni yuzaga kelishiga sababchi bo‘ladi. Butun dunyo Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra quyidagi alimentar kasalliklar guruhlarini ajratish mumkin: I. Juda yuqori qiymatli ratsioniga bog‘liq bo‘lgan kasalliklar: 1. Alimentar semirish kasalligi; 2. Ortiqcha ovqatlanish - quyida keltiriladigan kasalliklarning shakllanishida xavfli omil vazifasini o‘tashi mumkin - yurakning ishemik kasalliklari, ateroskleroz, gipertoniya podagra, qandli diabet, buyrak tosh kasalliklari, o‘t pufagi toshi kasalliklari. II. Yetarlicha

ovqatlanmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklar: 1. Energiya tanqisligi bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklar-alimentar distrofiya, alimentar marazm (alimentar kam quvvatlilik). 2. Ovqatlarning to‘la qiymatli emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklar: OET—oqsil energiya tanqisligi, Kvashiorkor - ovqat tarkibida to‘la qiymatli oqsillarning bo‘lmasligi tufayli kelib chiqadigan kasallik turi yoki yog‘larning tanqisligidan kelib chiqadigan kasallik, gipo- va avitaminozlar. III. Ovqat mahsulotlarining sifatsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklar-ovqatdan zaharlanishlar kelib chiqadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

To‘g‘ri ovqatlanishning haqiqiy kaliti – faollik, tonus va tana og‘irligini o‘z hayot tarziga mos ravishda saqlab turish. Sog‘lom ovqatlanishning ba’zi qoidalarini ko‘rib chiqamiz. Ba’zi odamlar pazandalik san’ati bilan shug‘ullanadi, ba’zilar uchun esa mikroto‘lqinli pech haqiqiy qutulish yo‘li hisoblanadi. O‘zingiz uchun foydali hisoblangan tayyorlash va iste’mol qilish usulini topish juda muhimdir. O‘simpliklar va hayvonlardan olinadigan oziq-ovqatlarni aralashtiring Kombinatsiya qilingan ovqatlanishning afzalligi shundaki, go‘shtli ovqatlarga tarkibida ko‘p miqdorda suyuqlik bo‘lgan sabzavotlar va mevalar qo‘shilganda xuddi shu hajmdagi ovqatlarning tarkibidagi kaloriya ancha kamroq bo‘ladi. Bunday yondashish orqali siz o‘zingizni odatdagicha yeyapman deb aldashingiz mumkin. Kamroq go‘sht iste’mol qiling Sog‘lom ovqatlanishning asosi go‘sht emas, balki tarkibida kraxmali yo‘q donlilar, yong‘oqlar, urug‘lar, sabzavotlar va mevalar bo‘lishi kerak. Butun donlilar (suli yormasi, jigarrang guruch, butun donli non) organizmni hazm qilish tizimiga va tezroq to‘yishga yordam beruvchi kletchatkalar va quvvatni oshiruvchi, modda almashinuvini tezlashtiruvchi B guruh vitaminlari bilan ta’minlaydi. Yog‘larni iste’mol qilishda sinchkovroq bo‘ling Hamma yog‘lar ham organizmga bir xilda ta’sir ko‘rsatmaydi. Yarim to‘yinmagan va kam to‘yinmaganlari “yaxshi” yog‘lar hisoblanadi, ularning ta’siri o‘simplik va losos, forel, seld balig‘i yog‘larinikiga o‘xhash bo‘ladi. Ular qondagi xolesterin darajasini oshirib yubormaydi va hatto yurak-tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi. Hammasini emas, balki biron bir qismini yeng Agar siz qaysi oziq-ovqatlarni iste’mol qilmoqchi ekanligingizni aniqlab olgan bo‘lsangiz ham, iste’mol qilayotgan ovqatingizning miqdoriga e’tibor berishingiz zarur. Kornell universiteti professori Brayan Uensinkning aytishicha, odamlarning to‘qlik darajasi uch xil bo‘ladi – “men ochman”, “men yana yeyishga qarshi emasman” va “men boshqa yeyolmayman”. Eng yaxshi yo‘li – hammasini emas, balki faqat bir qisminigina yeyish. Shunday qilsangiz ham sog‘lig‘ingizga zarar yetkazmaysiz va ham pulingizni tejagan bo‘lasiz. Sog‘lom ovqatlanishning 7 printsipi Sog‘lom ovqatlanish printsiplari juda oddiy. Afsuski ularga hamma ham rioya qilavermaydi. Mazkur printsiplar - och qolish, holdan toydiruvchi parhez degani emas, biroq oshqozon yarasi,

pankreatit, xolesistit va semirib ketishdan ogohlantiruvi oddiy qoidalar. Aytilgan kasallaiklar esa, organizmga salbiy ta'sir ko'rsatib, diabet, infarkt va insultga sabab bo'lishi hech gap emas (darvoqe, bu kasalliklarga istalgan yoshdan chalinish mumkin). Yuqorida sanalgan muammolarga duch kelmaslik va och qolib ketmasdan, to'g'ri ovqatlanish uchun quyidagi qoidalarga amal qiling:1-qoida. Bir kunda qancha sarflansa, shuncha taom iste'mol qilish kerak. Aniqlik kiritish uchun bir martalik ovqatlanishni kaloriya va grammlarda hisoblash va nimalarga e'tibor berish zarurligini o'zimizga belgilab olamiz. Haddan ziyod ko'p eb qo'ymaslikning yaxshigina yo'li – shoshmasdan taomlanish. Ovqatlanish mahali televizorga qaramang, kompyuterda ishlamang va umuman diqqatni jalb etuvchi tashqi omillardan xoli bo'lish zarar qilmaydi.2-qoida. Yegulik har xil bo'lishi lozim.Yomon ta'sir qilmasa, taomnomangizda albatta sho'rva va bo'tqalar bo'lishi kerak (bu bolalikdan esdalik - ertalabdan manna yoki suli yormasini eyishga majbur qilish degani emas). Bo'tqalarning juda ko'p turlari bo'lib, tayyorlash usuli undanda bisyor.3-qoida. Taomnomangizda sabzavot va mevalar bo'lishi shart.Fransuzlar kun davomida barcha organlarning to'g'ri ishlashi uchun kamida beshta sabzavot va meva: olma yoki ananas, pomidor yoki avakado iste'mol qilish shart deydi. Bu o'z navbatida organizmingizdagi qo'shimcha vitaminlar va mineral moddalar zaxirasi deyish mumkin. Ular immunitetni mustahkamlaydi. Shunda siz kamroq charchaysiz, kamroq shamolaysiz, ish qobiliyattingiz bir muncha oshadi.4-qoida. Sut mahsulotlari ham yomon emas.Ular suyaklarni mustahkamlab, osteoporoz rivojlanishining oldini oladi. 40 yoshdan keyin organizm sutni qabul qilmay qolishi mumkin. Bundan vahimaga tushish yaramaydi va sut o'rniga: qatiq yoki yogurt, suzma va tvorog kabi boshqa boshqa sutli mahsulotlar birini tanlash mumkin.5-qoida. Asosiy ovqatlanish oralig'ida nimadir eb qo'yishga o'rganmang.Oshqozonga egulik tusha boshladimi, organizm to'liq ovqatlanish jarayoni boshlandi deb "o'ylaydi". Hazm uchun zarur miqdordagi oshqozon shirasini ishlab chiqaradi, biroq siz esa ikki dona konfet bilan kifoyalanasisiz. Ortib qolgan hazm shirasi nima qilishni bilmay, oshqozon devorlarini "ey boshlaydi" va alal-oqibat, oshqozon yarasi kasalligi kafolatlangan. Mana shu sababdan ham och qoringa saqich chaynmaslikni maslahat bergen bo'lardik.6-qoida. Ratsioningizni kichik portsiyalarda to'rt yoki beshga bo'ling. Asosiysi – ana shu portsiyalarni muntazam qabul qilib borish. Shunda organizm ham bunga o'rganib ishlay boshlaydi. Siz esa barcha parhezshunoslar ta'kidlaganidek, bemalol kuniga 4-5 mahal ovqat qabul qilishni o'zlashtriasiz. Oshqozongiz esa bundan ozor chekmaydi, ortiqcha vazn ham sizni tashvishga solmaydi. Muntazam ovqatlanish – ovqat hazm qilish tizimingizga e'tiborli ekaningizning asosiy belgisi hisoblanadi. Bejizga: "urushda ham ovqatlanishni unutma" deyishmagan-kau! 7-qoida. Nonushta qilishni unutmang. Nonushta kun davomida organizmning modda almashinuv tizimini ta'minlaydi. Nonushta

organizmga sizning uyg‘onganingiz va faol ish jarayoniga tayyor ekaningizdan xabar beradi, sovuq havoda kun davomida sizni isitadi. Shuningdek, kechki soat oltidan keyin ovqatlanish mumkin emas, degan uydirmaga to‘xtalmoqchimiz. Albatta, siz kechki 8 da uyquga yotadigan bo‘lsangiz, ovqatlanish yaramaydi. Ammo, uyquga yarim tundan keyin yotadigan bo‘lsangiz, ovqatlanish oralig‘i cho‘zilib ketishi tabiiy. Bunday paytda modda almashinuvi susayadi. Oqibatda vazn oshishiga sabab tayyor. Siz esa och qoringa uyquga yotasiz. Eng maqboli - uyqudan 2-4 soat oldin ovqatlanish. Unchalik qiyin bo‘lman mazkur qoidalar sizga ochlik va bo‘kib qolish o‘rtalig‘ini topishga ko‘mak beradi, organizmingizni etarlicha ozuqa bilan ta’minalash, immunitetni mustahkamlash, oshqozon-ichak kasalliklari va yana boshqa turli noxushliklardan himoyalaydi. Yeganingiz osh bo‘lsin!

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1.<https://xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoev-khalqimiz-salomatligi-hamma-narsadanustun-va-qadrli>.
2. I.I.To‘lqinov, D.T.Ismoilov, U.Sh.Maxamatov. Medicinal properties of basil plant // Народная медицина: прошлое и будущее. Фергана-2021. -C. 153 – 154  
[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=libnqtsAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=libnqtsAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC)
3. <https://zira.uz/uz/2018/09/19/sog-lom-ovqatlanish-tartibi>.
4. Umarov Humoyunmirzo Nabijon ugli, Ahmadaliev Rustamjon Umaralievich, Ismoilov Dilmurod Tavakkal ugli, Ubaydullayeva Farangisxon Ulugbek qizi. HYGIENIC ASSESSMENT OF WORKING CONDITIONS AND ENVIRONMENTAL PROTECTION AT GLASS PRODUCTION PLANTS // World Bulletin of Social Sciences (WBSS). ISSN (E): 2749-361X. Volume 2. September 2021 (Impact factor 7.545). -C. 120 – 122.  
[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=libnqtsAAAAJ:d1gkVwhDpl0C](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=libnqtsAAAAJ:d1gkVwhDpl0C)
5. <https://avitsenna.uz/soglom-ovqatlanishning-asosiy-qoidalari>.
6. Г.Мухаммадова, М.Д.Ашуррова, Е.Муйдина, Д.Исмоилов, М. Рахматшоев. ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ (ПОО) В ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ГИГИЕНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН // Journal of Clinical and preventive medicine (Klinik va profilaktik tibbiyot jurnali) Научный журнал № 1. Фергана-2022. -C. 52 – 55.  
[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=libnqtsAAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=libnqtsAAAAJ:2osOgNQ5qMEC)
7. <https://xabardor.uz/uz/post/soglom-ovqatlanish-nima-uchun-muhim>.

8. Ахмаджонова Шахло Валижон кизи, И smoилов Дилмурад Таваккалжон угли, Солиев Бахтиёр. ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ SOUS VIDE: ОПТИМАЛЬНЫЙ ПОДХОД К ОБЕСПЕЧЕНИЮ МИКРОБИОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ // BELARUS, International scientific-online conference (Part 12). 19.03.2023. -C. 36 – 41.

[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=libnqtsAAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=libnqtsAAAAJ:UeHWp8X0CEIC)

9. <https://xs.uz/uz/post/togri-ovqatlanish-va-sogalom-turmush-tarzi-umummillij-harakati-nimalarni-oz-ichiga-oladi>.

10. Ismoilov Dilmurod Tavakkaljon ugli, Mudinova Yokutkhan Giyazidinovna, Mukhammadova Gulbahor Kobiljon kizi. GLOBAL PROBLEMS OF LABOR PROTECTION IN AGRICULTURE // THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY (Part 7). 21.03.2023. -C. 10 – 14.

[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=libnqtsAAAAJ:qjMakFHDy7sC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=libnqtsAAAAJ:qjMakFHDy7sC)

11. [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/sogalom\\_ovqatlanish\\_bu\\_yunalishda\\_nima\\_kutilmoqda](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/sogalom_ovqatlanish_bu_yunalishda_nima_kutilmoqda).

12. B.Soliyev, Y.G.Muydinova, G.K.Mukhammadova, D.T.Ismailov. THE CONTRIBUTION OF THE FOUNDERS OF MEDICINE TO THE SCIENCE OF HYGIENE AND THE EMPIRICAL DATA THE COLLECTED // EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. ISSN 2181-287X. UIF=8.3. SJIF=5.995. Volume 3. Issue 4. Part 2. 25.04.2023. -C. 51 – 54.

[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=libnqtsAAAAJ:eQOLeE2rZwMC&gmla=A H70aAXJ55OP8gx5NOuZqdvbWJWdrKN\\_WfdBh1XLuA7J5p2qnnqjCJ31Q5mTwj 8\\_YCZp\\_mxfLEr77wUAQm3GJIXXdok4G3lz3SBByUX4NE4B1IA&gmla=AH70aAVqVCdECaB5kzsVhCejBlzdkzsQqU1DMzh5c8eg0c4YXa26V8zLTVOHjscri0pU-P9lGKKyzT4P9KGgpjQHG0l6sC8L1GiyZvBt7VIvLRDg&sciund=1595769618597 548850](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=libnqtsAAA AJ&sortby=pubdate&citation_for_view=libnqtsAAAAJ:eQOLeE2rZwMC&gmla=A H70aAXJ55OP8gx5NOuZqdvbWJWdrKN_WfdBh1XLuA7J5p2qnnqjCJ31Q5mTwj 8_YCZp_mxfLEr77wUAQm3GJIXXdok4G3lz3SBByUX4NE4B1IA&gmla=AH70aAVqVCdECaB5kzsVhCejBlzdkzsQqU1DMzh5c8eg0c4YXa26V8zLTVOHjscri0pU-P9lGKKyzT4P9KGgpjQHG0l6sC8L1GiyZvBt7VIvLRDg&sciund=1595769618597 548850)